



“TASDIQLAYMAN”

**Davlat test markazi direktori
o‘rinbosari**

S.B.Radjabov

2022 yil “ _____ ” _____

**Davlat test markazi tomonidan o‘tkaziladigan test sinovlarida ishlatiladigan,
hisobi qat’iy yuritiladigan blank mahsulotlarini ishlab chiqarishga
qo‘yiladigan**

TALABLAR

(Eng yaxshi takliflarni tanlab olish tartibi asosida o‘tkaziladi)

- 1) Matbaa ishlab chiqarish faoliyatini olib borish uchun qonunda belgilangan litsenziya va sertifikatga ega bo‘lishi;
- 2) Markaziy bank tomonidan hisobi qat’iy yuritiladigan va qalbakilashtirishdan maxsus himoyaga ega blank mahsulotlarini tayyorlash uchun litsenziyaga ega bo‘lishi;
- 3) ishlab chiqarishning har bir bosqichida mahsulot sifatini nazorat qilib borish va yaroqsiz mahsulot ishlab chiqarilishiga yo‘l qo‘ymasligi hamda o‘z sifat nazorati bo‘limiga ega bo‘lishi;
- 4) ijrochi tashkilot xalqaro ISO sertifikatiga ega bo‘lishi;
- 5) bosma qolip chiqarish, chop etish, kesish jarayonlarini bajarish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy uskunalarga ega bo‘lishi va ishlab chiqarishning to‘liq siklini o‘z texnik bazasida bajarishi;
- 6) tanlangan qog‘oz printerlarda chop etish uchun mos kelishi va o‘ta silliq bo‘lmasligi kerak hamda buyurtmachi tomonidan tasdiqlanishi lozim;
- 7) chop etilgan blankada buyurtmachi tayyorlagan elektron shakldagi har bir element koordinatasi, hajmi va o‘lchami o‘zgarmasligi uchun barcha choralarni ko‘rishi;
- 8) blankani kesish jarayonida ko‘rsatilgan markerlardan va qirqish belgisidan chetga chiqmasdan yuqori aniqlikda kesishi;
- 9) qabul qilingan blankalarda qirqish chizig‘idan kesishda xatolik aniqlansa, rangi, tusi, o‘lchami, elementlar koordinatasi buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan asl nusxadan yoki elektron fayldan farq qilsa, shuningdek, javoblar varaqasiga printerlarda chop etish jarayonida qog‘oz printer uzellarida harakatlanishda muammo tug‘ilsa, ushbu blankalarni 2 ish kunida yangisiga almashtirib berilishini ta‘minlashi va mazkur holat bilan bog‘liq barcha moddiy xarajatlarni o‘z zimmasiga olishi;
- 10) buyurtmachi tomonidan berilgan blankaning elektron shaklining konfidensialligini saqlashi, blankaning qat’iy hisobini yuritishi va buyurtma

bajarilgandan so‘ng elektron fayllar, bosma qoliplar, blankalarning ortiqchasi va nuqsonlilarini tegishli tartibda yo‘q qilinishini ta‘minlashi;

Takliflar Davlat test markaziga yuborilishi lozim.

Manzil: 10084, Toshkent shahri,

Bog‘ishamol ko‘chasi, 12-uy, tel: (+99871) 235 19 14